V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 21 544,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 6 852,6 mlrd. so‘m yoki umumiy ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 31,8 %ini tashkil qildi. 2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 120,0 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

	mlrd. so‘m	*2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida*	*yakunga nisbatan % hisobida*
Jami xizmatlar:	**21 544,5**	**120,0**	**100,0**
shu jumladan, xizmat turlari bo‘yicha:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	652,9	131,1	3,0
Moliyaviy xizmatlar	2 677,8	115,7	12,4
Transport xizmatlari	5 327,7	120,8	24,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 981,1	118,6	23,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	747,0	109,6	3,5

	mlrd. so‘m	*2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida*	*yakunga nisbatan % hisobida*
Savdo xizmatlari	7 027,2	111,9	32,6
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	722,9	134,0	3,4
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	527,1	123,0	2,5
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	422,6	147,8	2,0
Ijara xizmatlari	633,5	120,7	2,9
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	446,8	120,4	2,1
Shaxsiy xizmatlar	610,7	125,5	2,8
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	908,8	153,3	4,2
Boshqa xizmatlar	839,5	151,5	3,9

Yuqori o‘sish me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (53,3 %), boshqa xizmatlarda (51,5 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (47,8 %), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarda (34,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (31,1 %), shaxsiy xizmatlarda (25,5 %), ta’lim sohasidagi xizmatlarda (23,0 %), transport xizmatlarida (20,8 %), ijara xizmatlarida (20,7 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarda (20,4 %), moliyaviy xizmatlarda (15,7 %), savdo xizmatlarida (11,9 %) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida (9,6 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo‘lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’atlarining o‘sishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 32,6 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko‘rsatkichlar transport xizmatlari (24,7 %) hamda moliyaviy xizmatlarda (12,4 %) qayd etildi. Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda uncha katta bo‘lmagan o‘sish kuzatilib ularning ulushi 4,2 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo‘lmagan ulush boshqa xizmatlar (3,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,5 %) hamda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (3,4 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, %da

(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to‘rtdan uch qismini, aniqrog‘i 69,6 %ini tashkil etdi (2020- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 71,2 %ga to‘g‘ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 20,2 %ni tashkil etdi (2020- yilning mos davrida ulgurji savdo xizmatlari ulushi 20,1 %ga to‘g‘ri kelgan).

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 10,2 %ni tashkil qildi (2020- yilning mos davrida avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 8,7 %ga to‘g‘ri kelgan).

Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan, %da
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Ohangaron (124,8), Chirchiq (122,9) shaharlarida hamda Bo‘stonliq (127,4 %), Parkent (124,5 %), Zangiota (124,2 %), Toshkent (123,8 %), Quyi Chirchiq (123,5 %), O‘rta Chirchiq (122,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, ushbu davr mobaynida eng past o‘sish sur’atlari Nurafshon (115,4 %), Olmaliq (115,2 %) shaharlarida hamda Qibray (115,2 %), Piskent (115,0 %), Yangiyo‘l (114,8 %), Oqqo‘rg‘on (114,8 %), Bo‘ka (114,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari taqqoslanishi, %da
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yuqori o‘sish sur’atlari me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (153,3 %), boshqa xizmatlar (151,5 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (147,8 %) qayd etildi. Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar savdo xizmatlarida (111,9 %) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida (109,6 %) qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (143,1 %), moliyaviy xizmatlarda (131,5 %) yuqori o‘sish sur’atlari qayd etilgan. Aksincha ta’lim sohasidagi xizmatlarda (71,6 %) keskin pasayish kuzatilgan.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan %da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da	ming so‘m	2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan %da
Viloyat bo‘yicha	**21 544,5**	**120,0**	**100,0**	**7 386,3**	**121,3**
shaharlar:					
Nurafshon	798,9	115,4	3,7	15 334,1	113,2
Olmaliq	1 441,8	115,2	6,7	10 735,7	113,4
Angren	1 392,0	120,3	6,5	7 212,3	118,3
Bekobod	1 017,1	119,8	4,7	10 421,6	118,3
Ohangaron	443,2	124,8	2,1	11 190,9	121,0
Chirchiq	1 849,8	122,9	8,6	11 293,2	120,0
Yangiyo‘l	951,6	117,7	4,4	15 226,2	115,1
tumanlar:					
Oqqo‘rg‘on	552,0	114,8	2,6	5 144,5	113,0
Ohangaron	354,5	121,3	1,6	3 628,4	119,5
Bekobod	624,1	118,1	2,9	3 881,3	116,3
Bo‘stonliq	1 355,6	127,4	6,3	7 881,1	126,0
Bo‘ka	560,0	114,0	2,6	4 351,2	112,0
Quyi Chirchiq	431,7	123,5	2,0	3 889,1	121,3
Zangiota	2 030,2	124,2	9,4	12 570,9	149,3
Yuqori Chirchiq	839,4	120,9	3,9	6 222,5	122,8
Qibray	2 158,3	115,2	10,0	12 614,5	135,5
Parkent	863,4	124,5	4,0	5 430,0	122,3
Piskent	314,8	115,0	1,5	3 059,1	113,3
O‘rta Chirchiq	793,3	122,7	3,7	5 991,4	130,4
Chinoz	617,3	120,7	2,9	4 482,7	118,3
Yangiyo‘l	977,2	114,8	4,5	4 620,1	112,6
Toshkent	1 178,3	123,8	5,4	6 355,8	121,4

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Qibray tumanida qayd etildi – (10,0 %) (2020- yilning mos davrida – 10,4 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Piskent tumanida – 1,5 % (2020- yilning mos davrida – 1,5 %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 7 386,3 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 121,3 %ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘sish sur’ati, %da



2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori ko‘rsatkichlar Zangiota (149,3 %), Qibray (135,5 %) va O‘rta Chichiq (130,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Bo‘ka (112,0 %) va Yangiyo‘l (112,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so‘m



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 15 334,1 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 113,2 %) va Yangiyo‘l shahrida – 15 226,2 ming so‘mni (115,1 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng past xizmatlar ulushi Quyi Chirchiq tumanida – 3 889,1 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 121,3 %), Bekobod tumanida – 3 881,3 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 116,3 %), Ohangaron tumanida – 3 628,4 ming so‘mni (119,5 %) va Piskent tumanida – 3 059,1 ming so‘mni (113,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi, %da

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 70,6 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Oqqo‘rg‘on (90,2 %), Bo‘ka (89,7 %), Yangiyo‘l (86,2 %) tumanlari va Yangiyo‘l shahriga (86,6 %) to‘g‘ri keldi.

Aksincha, eng past ulush Qibray tumanida (50,0 %) va Nurafshon shahrida (34,8 %) kuzatildi.